

ta'minlash uchun kerak; Uzun jumlalarni ajratish. Murakkab mantiqiy aloqalarni o'z ichiga olgan uzun jumlalar idrok va tushunishni qiyinlashtiradi. 4. Aniq sinonimlarni olib tashlash. Ko'rsatmalarni tarjima qilishda, eng muhim, terminologiyaning birligini saqlash, shuning uchun bir xil atamani sinonimlar bilan almashtirish xato. Agar atama asl matnda takrorlansa, tarjimada u ham takrorlanishi kerak; Qisqartmalarni hal qilish; Matnni raqamlar, grafikalar va jadvallarga asoslanib tarjima qilish; Sarlavhalarni oxirgi tarjima qiling, Taqdimot uslubiga rioya qiling (predikatning bo'linishiga, fe'lning passiv shakllari, ishtiokchilarining, shuningdek, ot va jinsga oid so'zlarda to'planishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Xulosa qilib aytganda, texnik matnlar tarjimasi ustida hali aniq bir nazariya va amaliy ko'nikmalar ishlab chiqilmagan. Ko'pgina adabiyotlar rus tilida va o'zbek tili bilan ishlangan tarjimalar hali nazariy to'plam sifatida ishlab chiqilmadi. Bu esa oliv ta'lim muassasalarida ushbu fanga oid materiallarning yetishgmasligi, shuningdek, texnik va ilmiy sohada tarjimon yetishtirishda to'siq bo'lmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Baker, Mona. In Other Words. "A coursebook on translation". New York: Routledge, 2006
2. Baker, Mona (ed.).Routledge Encyclopedia of Translation Studies. London: 2001.
3. I.G'afurov, O.Omonov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. "Tafakkur bo'stoni". Toshkent 2012.

**UO'K 81-13**

### **O'ZBEK TILI IQON SHEVASINING O'RGANILISH TARIXIDAN**

**Z.R. Xidraliyeva, katta o'qituvchi, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shimoliy o'zbek shevalarining o'g'uz lahjasiga birlashuvchi Iqon shevasining ilmiy manbalarda o'rganilishi hamda ularda qayd qilingan ba'zi ma'lumotlar haqida fikr yuritiladi, munosabat bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** sheva, lahja, adabiy til, fonetika, fonema, fonetik variant,, o'g'uz lahjası, qipchoq lahjası, qarluq lahjası, asos, affiks, dialektal so'z, dialektal tarkib.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются некоторые сведения об изученности Иканского говора, входящий в состав огузского наречия группы североузбекских диалектов, в научных источниках. Также выражено отношение автора к предыдущим исследованиям.

**Ключевые слова:** говор, наречия, литературный язык, фонетика, фонема, фонетический вариант, огузский диалект, кипчакский диалект, карлукский диалект, основа, аффикс, диалектизм, диалектное содержание.

**Abstract.** This article discusses some relevant information about the study of the Ikan dialect, which is part of the oguz dialect of the group of North Uzbek dialects in scientific sources. The author's opinion to previous studies is also provided.

**Key words:** dialect, literary language, phonetics, phoneme, phonetic option, Oghuz dialect, Kipchak dialect, Karluk dialect, root of the word, affix, dialecticism, composition of the dialect.

Iqon shevasi umumxalq o'zbek tilining ajralmas bir bo'lib, ushbu sheva vakillari Qozog'iston Respublikasi Turkiston viloyatining Iqon qishlog'ida yashaydi. Iqon shevasi hozirga qadar monografik planda o'rganilmagan bo'lsa-da, uning lingistik xususiyatlari to'g'risida ilmiy adabiyotlarda ba'zi ma'lumotlar bor. Jumladan, professor Y. D. Polivanov sobiq SSSR Fanlar akademiyasining Axborotida bu sheva to'g'risida muhim ma'lumotlarni keltiradi [1]. Y. D. Polivanov Iqon shevasining unlilar tizimi to'g'risida ma'lumot berishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa-da, uning avvalida shevaning o'zbek tili dialektal tizimidagi o'rniغا to'xtalgan. U Iqon shevasini o'g'uz guruhining o'ta qiziq shevasi ekanligini ta'kidlaydi va o'g'uz shevalari tarqalishining uch tarmog'ini ko'rsatadi:

1. Qozog'iston Respublikasining shimoliy o'zbek tumani. Unga Iqon va Qorabuloq shevalarini kiritadi. Shu o'rinda u Mankent shevasi haqida gapirib, uni Iqon, Qorabuloq shevalari bilan umumiyligi saqlaganini qayd qiladi va ayni o'rinda undan farqlanishini ham ko'rsatadi. Uningcha, Iqon shevasida æ (hozirgi transkripsiyada ə/ä) o'rniда a: (hozir ham shunday beriladi) keladi va unga əvarə//a:va:ra so'zini misol qilib ko'rsatadi. Professor V.V.Reshetov Y. D. Polivanovning o'zbek

shevalari bo'yicha olib borgan tavsifiy ishlarning juda aniq bo'lishi bilan ajralib turishi, til faktlarining interpretatsiyasi hech qanday e'tiroz tug'dirmasligini ta'kidlagani holda, Iqon-Qorabuloq shevasini qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining shimoliy o'zbek guruhiga kiritgan [1]. Bizningcha, Y. D. Polivanov nuqtayi nazari to'g'riga o'xshaydi, chunki kuzatishlarimiz shevada ko'proq o'g'uz lahjasiga xos fonetik va morfologik, leksik xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Lekin Mankent shevasi to'g'risidagi fikrlarida ayrim asosli o'rinalar bo'lsa-da, o'g'uz shevalariga kiritilishi maqsadga muvofiq edi.

2. Y. D. Polivanov Turkiston shahri jome masjidi imomi Shoh Mardon Sultonovning bergan axboroti asosida iqonliklarning bir qismi Buxoro atrofi Qoraxonga (Qorako'l bo'lsa kerak) qochib borib joylashib, u yerda ham o'g'uz shevalarining tarqalganligi haqida yozadi va uning qanchalik haqiqat ekanligini tekshirib ko'rish imkoniyati bo'lmanligini tan oladi. Muhimi, u Buxoro atrofida Qorako'l, Olot tumanlaridagi o'g'uz shevalariga ishora qilganligini tushunish mumkin.

3. O'g'uz sheva vakillari Xorazm viloyatida istiqomat qilishlarini ta'kidlaydi. O'g'uzlarning bu uch territoriyaga tarqalishi masalasini hozirgi kun nazari bilan baho berganda, go'yo, u qadar ahamiyati yo'qdek ko'rindi. Aslida Y. D. Polivanov bergan ma'lumotlar tufayli o'zbek shevalari, xususan, o'g'uz shevalarining tarqalishi o'zining ilk ilmiy isbotini topgan edi. Y. D. Polivanov ushbu maqolasidagi fikrlarini rivojlantirib, o'zbek shevalari, ularning tarixi bo'yicha to'plagan ma'lumotlari asosida o'zbek tilining dialektal tarkibini yirik asarlaridan birida to'liq holda yoritgan edi [2]. Y. D. Polivanov ushbu maqolasida Iqon shevasida 9 ta unli fonema mavjudligini ko'rsatadi va shu jihatidan Turkiston shevasi bilan o'xhash ekanligini ta'kidlaydi. Y. D. Polivanov maqolada "fonema" degan termin bilan birga, sifat jihatdan farqlanadigan tovush namoyandalari (kachestvenno-razlichnye zvukopredstavleniya) degan iborani ham qo'llaydi. Albatta, bunday ish tutish hozirgi fonema to'g'risidagi nazariy qarashlarga ixtilofi yo'q [3]. Yuqorida Y. D. Polivanovning Iqon shevasi fonemalar miqdori Turkiston shevasi bilan aynan ekanligini ta'kidlagani to'g'risida fikr yuritdik. Ayni o'rinda u ayrim fonemalarning Turkiston shevasidan farq qilishini ham tushuntirishga harakat qiladi. Jumladan, Iqon shevasida e unlisiga, Turkiston

shevasida æ unli mos kelishini, hamda 9 ta fonema o'zining cho'ziq variatsiyalari bilan birga juft miqdoriy kategoriyaga ega ekanligini izohlaydi va unli fonemalarning qisqa, cho'ziq variatsiyalarini kategoriya deb talqin qiladi.

Y. D. Polivanov Iqon shevasida qayd etgan unlilarni quyidagi jadval orqali ko'rsatishni ma'qul ko'rdik:

| Old qator unlilar |    |    |    |    |    |    |    |    |    |    |
|-------------------|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
|                   | 1  | 2  | 1  | 2  | 1  | 2  | 1  | 2  | 1  | 2  |
| Qisqa unlilar     | i  | i  | e  | e  | ε  | ä  | u  | ü  | ø  | ö  |
| Cho'ziq unlilar   | i: | i: | e: | e: | ε: | ä: | u: | ü: | ø: | ö: |

| Orqa qator unlilar |    |    |    |    |    |    |    |    |
|--------------------|----|----|----|----|----|----|----|----|
|                    | 1  | 2  | 1  | 2  | 1  | 2  | 1  | 2  |
| Qisqa unlilar      | u  | ü  | a  | a  | u  | u  | o  | o  |
| Cho'ziq unlilar    | u: | ü: | a: | a: | u: | u: | o: | o: |

Izoh: 1 raqami ostida Y. D. Polivanov tanlagan transkripsiya, 2 raqami bilan hozir amalda bo'lgan transkripsiya berildi.

Ko'rindaniki, i, e, a, u, o unlilari hozirgi transkripsiya mosdir. Shu bilan birga Y. D. Polivanov Iqon shevasining boshqa o'zbek shevalaridan farqli ayrim xususiyatlari haqida ma'lumotlarni keltiradi:

1. Turkiston shevasiga nisbatan lab singarmonizmining nafaqat yopiq bo'g'inli so'zlarda, balki ochiq bo'g'inda ham mavjudligini ko'rsatadi. Misol sifatida *qol-um*, *qol-u*, *o-qu* so'zlarini keltiradi.

2. So'z oxirida z undoshining jarangsizlashishini aytadi. Haqiqatan ham, shevada *kelingiz* ~ *kä:ηis*, *boramiz* ~ *ba:ramiš* tarzida talaffuz qilinadi.

3. *Bol* so'zidagi b undoshi tushib qoladi va *ol* tarzida qo'llanishi.

4. Qaratqich kelishigi affiksining (uni *genetiv* deb nomlaydi) -iŋ/-iŋ//- üŋ/-uŋ variantlarini ko'rsatadi. Qo'shimcha sifatida shuni aytish mumkinki, Iqon shevasining o'ziga xosligi bu o'rinda

lablangan unlili so‘zlarga - *uň/- iň* affiksining qo‘shilishini ham keltirish mumkin. Boshqa variantlar Turkiston shevasi bilan umumiylikka ega.

5. I va II shaxs egalik qo‘shimchalaridan so‘ng jo‘nalish kelishigining -*a/ä* affiksli variantlari qo‘shilishini keltiradi. Ma’lumki, bu barcha o‘g‘uz guruh shevalariga xos, lekin Iqon shevasidagi bu xususiyat Turkiston shevasining qarluq guruhiga o‘z ta’sirini o‘tkaza olgan [4] va bu shevalarda ham -*a/ä* affikslari yuqoridagi fonetik sharoitda baravar qo‘llana oladi.

6. Chiqish kelishigining -*din//dün//tin//tün* affiksi bilan ifoda qilinishini ko‘rsatadi. Albatta, bu xususiyat boshqa o‘g‘uz shevalari uchun xarakterli emas. Xorazm shevalarida bu kelishikda barcha singarmonistik variantlarda *a*, *ä* unlili affikslar ishtirok etadi [5]. Demak, arxaik –*dun/tun* va *din/dün* affikslari Iqon shevasida Turkiston shevasi ta’sirida paydo bo‘lgan.

7. Iqon shevasidagi hozirgi zamon davom fe‘lining *barayapma(n)* *barayapsa(n)* shaklida qo‘llanishini ko‘rsatadi. Bu fakt o‘z isbotini topmadni, chunki Turkiston shevasida ham, Iqon shevasida ham bunday shakl qo‘llanmaydi, balki Turkiston shevasida *baryappa* deyilsa, bugungi Iqon shevasida *bare:tma //bare:pma* shakliga ega.

8. Iqon shevasining lug‘at tarkibi haqida to‘xtalib, *čopaq ~ kaltakesak, jaryanat ~ ko ‘rshapalak* kabi o‘ziga xos so‘zlarning ko‘pligini ta’kidlab o‘tadi.

Y. D. Polivanovdan keyingi tadqiqotlarda ham Iqon shevasi haqida ayrim ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin. Q. Muhammadjonovning “Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari”, “Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari morfologiyasi” nomli monografiyalarini keltirish mumkin. Muallif “Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari“ monografiyasida Iqon shevasiga deyarli to‘xtalmagan (ayrim misollardan tashqari). Bu haqda asarning kirish qismida: ”...biz ularni ikkita (Chimkent va Turkiston) katta gruppaga ajratib o‘rgandik. Tekshirish obyektimiz ham shu shevalar bo‘lib, JQO‘ shevalarining o‘g‘uz tip shevalari bizning vazifamizga kirmaydi“ [6], – deb ta’kidlaydi.

“Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari morfologiyasi” monografiyasida esa o‘g‘uz tip shevalari ham tadqiqot doirasiga kiritiladi. Ammo, ushbu asarda keltirilgan misollarning ayrimlari Iqon shevasi xususiyatlarini aks ettirmaydi. Masalan, Q. Muhammadjonov ko‘plik formasiga doir shunday ma’lumotni keltiradi: ”... janubiy Qozog‘iston o‘zbek shevalarining o‘g‘uz va qipchoq tiplarida faqat z undoshi bilan bitgan o‘zaklarga ko‘plik affiksi -*dar//där* formasida birikadi... Mazkur hodisa Suzoq, Cho‘loqqa‘rg‘on, Qarnoq, Iqon, Boboyqo‘rg‘on qishloq shevalarida mavjud bo‘lib, Turkistondan Chimkent tomon yo‘nalishda susayib boradi“ [7]. Vaholanki, bizning materiallarimizda z undoshi bilan tugagan o‘zaklarga ko‘plik formasining -*dar//där* shakli mutlaqo qo‘shilmaydi. Masalan, *Qi:zarya bar; kü:zlärgä barıp* kabi. Ko‘plik affiksi -*lar//lär* z bilan tugagan kishilik olmoshlariga qo‘shilganda esa l mutlaqo tushib qoladi: *bizär, sizär (sillär)* shaklida.

-*lar* ko‘plik qo‘shimchasining funksiyalari haqida to‘xtalib, muallif quyidagi fikrni aytadi: ”... ko‘plik hurmat formasini so‘zlovchiga nisbatan yosh bo‘lib, ko‘pchilikni tashkil etganda ishlataladi: *balalar, bariñnar oquvya kesh qa:lib otırmañnar* (Iqon)“ [8]. Ammo bu fakt ham o‘z tasdig‘ini topmadni. Iqon shevasida -*lar* affiksi hurmat ma’nosini ifodalamaydi. Shu bilan birga jumladagi: *balalar, oquvya, qa:lib* so‘zları shevada birmuncha fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanishi farqlanmagan. *Ba:llar, ba:rïñnar o:qişya ke:sh qa:b otırmañnar* tarzida ifodalanishi lozim edi.

Muallif o‘g‘uz hukmronligi qipchoqlar tomonidan barbod etilganligini ta’kidlab, bu tarixiy faktni sheva materiallari ham tasdiqlashini aytib o‘tadi. Misol sifatida *tav, bav, sav* so‘zlarini keltiradi: ”Chimkent gruppera o‘g‘uz lahjasida *tag*‘, *bag*‘, *sag*‘, lekin Turkiston gruppera o‘g‘uz lahjasida *tav, bav, sav*... Lekin ularning qadimgi variantlari maqol, matal, ”*haqqona*“ tipidagi terma qo‘shiqlar va mazkur voha uchun umumiyligi va traditsion bo‘lgan laparlarda saqlanib qolgan: *çöntägídä bij tijini joq ayzini a:čüp körädi* /Iqon/“ [9]. Q. Muhammadjonov Turkiston gruppera o‘g‘uz shevalariga Qarnoq, Iqon, Ibota kabi qishloq shevalarini kiritadi [9]. Ammo yuqorida keltirgan fakt faqat Qarnoq shevasigagina xos bo‘lib, Iqon, Ibota shevalariga to‘g‘ri kelmaydi. Iqonliklar qipchoq shevasiga xos *tav, bav, sav* so‘zlarini mutlaqo qo‘llamaydi. Ushbu holat Iqon shevasida o‘g‘uz lahja elementlari ancha yaxshi saqlanganligi, unga qo‘shni qipchoq shevalari ta’siri kuchsiz ekanligini yana bir karra isbotlaydi.

Tadqiqotchi tushum kelishigi haqida shunday deydi: "O'rganilayotgan shevalarda tushum kelishigining assimilyativ formalari Toshkent tip shevalardagidek sistemali bo'lmasa-da, ma'lum fonetik pozitsiyada uchrab turadi: *özimmi žajümmijäm berämä uña /Ikon/Ikon/*" [9]. Ammo bu fikrni ham faktlar tasdiqlamayapti. Tushum kelishigining assimilyativ shakllari Ikon shevasida sporadic ravishda ham uchramadi. Biz yozib olgan materiallarga ko'ra yuqoridagi misol shunday ko'rinishda bo'lishi lozim: *ö:zimiñ ža:jümnijäm uña bäs:rämä*.

Ikon shevasiga oid ma'lumotlarni Muhammadrizo o'g'li To'xtash Mamayevning "Ikon va iyonliklar" nomli asarida ham uchratish mumkin. Ammo kitob Iqonning tarixiga bag'ishlangan bo'lib, shevaga oid bir necha so'zlarni sanab o'tish bilan cheklangan: *bidona* – bir dona; *bijaq* – bittagina; *eshi* – dugona; *to'n kiyishgan o'rtoq* – nikoh do'st; *oshqultoq* – pillapoya va h.k. [9].

Bu so'zlar transkripsiya orqali ko'rsatilganda, shevaning xususiyati yanada oydinlashgan bo'lar edi.

Shevada boshqa o'zbek shevalarida uchramaydigan, turli ekstra- va introlingvistik faktorlarga bog'liq bo'lgan ajoyib fonetik, grammatik va leksik xususiyatlar borki, ular olim va mutaxassislarning e'tiborini jalg etmay qolmaydi.

Ayrim tadqiqotchilarida keltirilgan juz'iy misollar esa bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda. Mana shu faktlarning o'zi mavzuning nechog'lik dolzarb ekanligini, Ikon shevasining o'ziga xos xususiyatlarini belgilash, uning boshqa shevalar bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirish, atrof shevalarga munosabatini yoritish zaruratini keltirib chiqaradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 149.
2. Мухамаджонов К. Туркестанский говор узбекского языка. Автореф... на соиск. Канд.фил. наук. - Ташкент
3. Мухаммаджонов К. Жанубий Қозогистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 5.
4. Мухаммаджонов К. Жанубий Қозогистондаги ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б.17.
5. Поливанов Е.Д. Фонетическая система говора кишлака Икан (Туркестанский уезд) //Известия. АН СССР, 1929. серия 7, № 7
6. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: 1933 г.
7. Решетов В.В. Ўзбек шеваларининг классификацияси //Ўзбек тили ва адабиёти, 1966. №1. – Б. 10.
8. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B.54.
9. Мухаммадризо ўғли Тўхташ Мамаев. Икон ва иконликлар. – Тошкент: Uzinkomsentr, 2003. – Б. 66-67.

## **UO'K 659.1**

### **REKLAMA MATNLARINING TARIXIY SHAKLLARI**

**K. Yusupova, mustaqil izlanuvchi, O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada reklamaning vujudga kelishi, rivojlanishi, kommunikatsiya vositasi sifatidagi xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, reklama tarixi va bugungi kundagi ahamiyati haqida atroflicha to'xtalingan. Bundan tashqari, reklamaning daromadga ta'siri, reklama beruvchi va iste'molchi o'rtasidagi ijobili aloqa vositasi sifatidagi xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Reklama, oq devorlar, kommunikatsiya, intellekt, marketing, psixologiya, tovar, xizmat, kommunikator.

**Аннотация.** В данной статье сообщается о развитии рекламы, создание и коммуникационных связей. Даётся история развития рекламных роликов. Кроме этого излагается доход от рекламы и тесное отношение между рекламодателем и потребителем.

**Ключевые слова.** Реклама, белые стена, коммуникация, интеллект, маркетинг, психология, товар, сервис, коммуникатор.

**Abstract.** The article examines the origin, development and characteristics of advertising as a means of communication. Also, the history of advertising and its importance today are thoroughly discussed. In addition, the impact of advertising on revenue, its properties as a means of positive communication between the advertiser and the consumer are considered.